



**THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS OF THE
HIERARCHICAL STATUS OF THE CONSTITUTION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL
TREATIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Choriyev Ulug'bek Rustamovich

3rd-year student of the Faculty of Public Law

Tashkent State University of Law

e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20455831>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

Supremacy of the
Constitution,
international treaty,
monism, dualism,
normative legal hierarchy,
lex superior,
constitutional review,
international law.

ABSTRACT

This article analyzes the issue of the legal hierarchy between the Constitution of the Republic of Uzbekistan and international treaties from both theoretical and practical perspectives. During the research, the concepts of monism and dualism, general legal theories concerning the hierarchy of normative legal acts, as well as the principles for resolving legal conflicts were examined. In addition, the constitutional practices of the United States, France, Türkiye, Albania, the Czech Republic, Croatia, Romania, Bosnia and Herzegovina, and the Russian Federation were studied on the basis of comparative legal analysis. The article systematically interprets the provisions of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On International Treaties," and the legislation on the Constitutional Court, substantiating the supreme legal force of the Constitution. The study concludes that although international treaties constitute a component of the national legal system, they do not prevail over the Constitution.

**«СООТНОШЕНИЕ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И
МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:
ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ»**

Чориев Улугбек Рустамович

Студент 3 курса факультета публичного права

Ташкентский государственный юридический университет

e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20455831>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

В данной статье анализируется вопрос правовой иерархии между Конституцией Республики Узбекистан и международными договорами с



Верховенство
Конституции,
международный
договор, монизм,
дуализм, нормативно-
правовая иерархия, *lex
superior*,
конституционный
контроль,
международное право.

теоретической и практической точек зрения. В ходе исследования были рассмотрены концепции монизма и дуализма, общетеоретические подходы к иерархии нормативно-правовых актов, а также принципы разрешения коллизий. Кроме того, на основе сравнительно-правового анализа изучены конституционные подходы Соединённых Штатов Америки, Франции, Турции, Албании, Чехии, Хорватии, Румынии, Боснии и Герцеговины, а также Российской Федерации. В статье системно проанализированы нормы Конституции Республики Узбекистан, Закона «О международных договорах» и законодательства о Конституционном суде, обосновывается высшая юридическая сила Конституции. По итогам исследования делается вывод о том, что международные договоры, являясь составной частью национальной правовой системы, не обладают верховенством над Конституцией.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO SHARTNOMASINING O'ZARO NISBATI: HUQUQIY TAHLIL

Choriyev Ulug'bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, 3-kurs talabasi

e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20455831>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

Konstitutsiya ustuvorligi,
xalqaro shartnoma,
monizm, dualizm,
normativ-huquqiy
iyerarxiya, *lex superior*,
konstitutsiyaviy nazorat,
xalqaro huquq.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalar o'rtasidagi huquqiy iyerarxiya masalasi nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida monizm va dualizm konsepsiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi haqidagi umumiy huquq nazariyalari hamda kolliziyalarni hal etish prinsiplari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, AQSh, Fransiya, Turkiya, Albaniya, Chexiya, Xorvatiya, Ruminiya, Bosniya va Gersegovina hamda Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyaviy amaliyotlari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonun hamda Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonunchilik normalari tizimli sharhlanib, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi asoslab beriladi. Tadqiqot yakunida xalqaro shartnomalar milliy huquq tizimining tarkibiy qismi



hisoblansa-da, ular Konstitutsiyadan ustun turmasligi haqidagi xulosa ilgari suriladi.

Huquqshunoslikda Konstitutsiya va xalqaro shartnoma nisbati bo'yicha juda ko'plab davlatlar olimlari tomonidan qizg'in muhokama va bahsli fikrlar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, ushbu masalada milliy qonunchilik bo'yicha tahlil amalga oshirish va masalaning nazariy asoslarini ochib berish zaruratini tug'diradi.

Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarning Konstitutsiyaga nisbatan huquqiy maqomi milliy qonunchilikda aniq va bir xil talqin etilmagan. Ayrim normalarda xalqaro shartnomalarning qonunchilikdan ustunligi nazarda tutilsa, boshqa normalar Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligini belgilaydi. Mazkur holat esa normativ kolliziyalar va konstitutsiyaviy talqin zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalar o'rtasidagi huquqiy iyerarxiyani umumiy huquq nazariyasi, xorijiy davlatlar tajribasi hamda milliy qonunchilik normalari asosida kompleks tahlil qilishdan iborat.

Maqolada ushbu masalani ikki xil jihatdan tahlil qilib o'tamiz: umumiy huquq nazariyasi jihatidan (I); xorijiy davlatlar Konstitutsiyasida ayni masala bo'yicha yondashuvlar (II); milliy huquq tizimidagi mavjud normalarning huquqiy tahlili jihatidan (III).

I. Umumiy huquqiy-nazariy tahlil. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalari o'rtasidagi iyerarxiyani aniqlashdan oldin, monizm va dualizm tizimlarining mazmuni ochib berish zarur. Monistik huquq tizimida xalqaro huquq davlatning ichki huquq tizimi bilan uyg'unlashgan va uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Dualistik huquq tizimida esa xalqaro huquq ichki huquqdan alohida hisoblanadi hamda u milliy darajada huquq va majburiyatlarga ta'sir ko'rsatishi uchun qonunchilik orqali ichki huquqqa kiritilishi ("domestikatsiya" qilinishi) kerak bo'ladi [1]. Ushbu tizimlarning mavzumiz tahliliga aloqadorligi shundan iboratki, dualistik huquq tizimiga ega davlatlarda Konstitutsiya va xalqaro shartnoma o'rtasidagi iyerarxiyani aniqlashning o'zi muhokama qilinadigan masala emas. Monistik huquq tizimida esa davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar ichki huquqiy tizimining tarkibiy qismiga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu tizimga oid davlatlarda sud tomonidan ham ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar huquqiy nizolarni ko'rishda to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi mumkinligini keltirib chiqaradi. Aynan shu tufayli monistik huquq tizimiga ega davlatlar uchun iyerarxiyani muhokama qilish amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi ham monistik tizimga xos



hisoblanadi. Buni ortiqcha muhokama qilishga hojat yo`q, chunki O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi 3-qismining o`zida aynan shuni bevosita aytib o`tgan norma mavjud: "O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O`zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir" [2]. Aynan O`zbekiston monistik tizimga egaligi ushbu maqola amaliy ma'no kasb etishini bildiradi. Endi asosiy umumhuquqiy nazariy tahlil qismiga o`tamiz.

Masalani, eng avvalo, umumhuquqiy nazariya jihatdan ko`rib o`tish lozim. Bunda "Normalar piramidasi"ni keltirib o`tishimiz kerak. Unga ko`ra quyidagicha iyerarxiya nazarda tutiladi: birinchi o`rinda Konstitutsiya (grundnorm); ikkinchi o`rinda parlament aktlari (qonunlar); uchinchi o`rinda qonunosti hujjatlar (delegated regulations); va oxirida individual aktlar [3]. Kelzenning ushbu nazariya normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasini belgilab bergan. Ammo bu iyerarxiyada xalqaro shartnomalarning qaysi o`rinda turishini bilib bo`lmaydi. Bu masalada Turkiyalik huquqshunos olim Kemal Gzler quyidagicha fikr bergan: "Xalqaro shartnomalarning nomrativ-huququqiy hujjatlar iyerarxiyasidagi o`rni uni tasdiqlovchi organiga qarab joylashtirilishi kerak [4]. Ya'ni bu bilan olim xalqaro shartnomani qonun chiqaruvchi organ, Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining tasdiqlashi uning iyerarxiyadagi o`rnini belgilab berishi lozim. Keling buni bir necha misollar tariqasida ko`rib chiqamiz. "O`zbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalari to`g`risida" gi qonunning 18-moddasida davlatlararo munosabatlarning asoslari haqidagi va o`zaro huquqiy yordam to`g`risidagi; O`zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyatiga daxldor masalalar bo`yicha, tinchlik shartnomalari va kollektiv xavfsizlik to`g`risidagi shartnomalar; O`zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan hududiy chegaralanishi to`g`risidagi; O`zbekiston Respublikasining davlatlararo ittifoqlardagi, xalqaro tashkilotlardagi va boshqa birlashmalardagi ishtiroki to`g`risidagi; bajarilishi O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari o`zgartirilishini yoki yangi qonunlar qabul qilinishini talab etadigan, shuningdek O`zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan bo`lsa, bunday shartnomalar ratifikatsiya qilinishi va bu Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilish to`g`risida qonun qabul qilish orqali amalga oshirilishi belgilanga. Xuddi shu qonunning 23-moddasida xalqaro shartnomalarga qo`shilish to`g`risidagi qaror, agar xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilinmaydigan toifadagi bo`lsa va ularga qo`shilish O`zbekiston Respublikasi nomidan yoki O`zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan amalga oshirilsa, o`sha shartnomalarga nisbatan — O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan; idoralararo shartnomalarga nisbatan — O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan qabul qilinishi aytilgan. Demak, bundan ma'lumki, olim keltirgan nazariya bo`yicha ayni shu tasdiqlash ularning normativ-huquqiy hujjatlardagi o`rnini



belgilab beradi. Masalan, Prezident qarori bilan tasdiqlangan xalqaro shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunlari yoki Oliy Majlis qaroriga qaraganda iyerarxiyada quyi o'rinda turishi lozim. Shunda o'rinli savol tug'iladi, unda umumiy nazariya bo'yicha O'zbekiston ratifikatsiya qilgan (qonun bilan) Konstitutsiyadan quyi o'rinda turishi zarurmi? Bizningcha, aynan shunday bo'lishi lozim. Chunki xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilinishi qonun bilan amalga oshiriladi, Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish uchun esa konstitutsiyaviy qonun kerak bo'ladi [5]. Bunda "joriy qonundan konstitutsiyaviy qonun maqomi O'zbekiston qonunchiligida ustunmi, ustun bo'lsa, qanday? degan savol tug'ilishi ham mumkin. Bu savolga javob Qonunchilik palatasi Reglamentining 152-moddasida belgilab qo'yilgan: "Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaga yoki konstitutsiyaviy qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun, agar unga deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi ovoz bergan bo'lsa, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi". Ya'ni bunda maqomidagi farqni aynan ularni qabul qilinishi uchun talab etilgan ovozlarga qarab bilib olishimiz mumkin. Konstitutsiyaviy qonun qabul qilinishi uchun qonunga taqqoslaganda ko'proq nisbat talab qilingan.

Masalaning nazariy nihatini tahlil qilishda davom etarkanmiz yana bir masala ko'tarilishi mumkin: "agar xalqaro shartnoma Konstitutsiyaviy

qonun bilan tasdiqlanadigan bo'lsa, unda qaysi ustun bo'ladi"? Bunga javob berishda yana umumiy huquq nazariyasiga murojaat qilish lozim. Ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni hal etishning 3 ta umum tarqalgan usullari (prinsiplari) mavjud. Birinchisi, *lex superior derogat legi inferiori* prinsipi – yuqori yuridik kuchga ega norma ustunligini; ikkinchisi, *lex posterior derogat legi priori* prinsipi – keyingi norma avvalgisini o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkinligi; uchinchisi, *lex specialis derogat legi generali* prinsipi esa maxsus norma umumiy normaga nisbatan ustuvor qo'llanilishi [6]. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, agar Konstitutsiya va xalqaro shartnomaning milliy huquq tizimda iyerarxiy o'rni teng deb qaraydigan oxirgi keltirgan holatimiz kelib chiqsa, unda *lex posterior derogat legi priori* prinsipiga (eng yangisi ustun) ko'ra aynan ziddiyat vujudga kelgan normaning va xalqaro shartnomaning qabul qilingan sanasiga qarab ziddiyat barataraf etilishi lozim. Sababi eng yangi norma dispozitsiya qonun chiqaruvchining irodasi (The will of legislature) ni ko'proq aks ettiradi.

II. Xorijiy davlatlar Konstitutsiyalari bo'yicha yondashuvlar. Xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy amaliyotida xalqaro shartnomalarning milliy huquq tizimidagi o'rni turlicha tartibga solingan. Ayrim davlatlarda xalqaro shartnomalar milliy qonunlar bilan teng yuridik kuchga ega bo'lsa, boshqa davlatlarda ular qonunlardan ustun turuvchi norma sifatida mustahkamlangan.



AQSh Konstitutsiyasining VI moddasi 2-bandida quyidagi norma mustahkamlangan: “Ushbu Konstitutsiya, unga muvofiq qabul qilinadigan Qo’shma Shtatlar qonunlari hamda Qo’shma Shtatlar nomidan tuzilgan yoki tuziladigan barcha shartnomalar mamlakatning oliy huquqi hisoblanadi; har bir shtat sudyalari, shtat konstitutsiyasi yoki qonunlarida bunga zid qoidalar mavjud bo’lsa ham, ushbu normalarga rioya etishga majburdirlar [7].” Mazkur qoida AQShda xalqaro shartnomalar federal qonunlar bilan bir qatorda “mamlakatning oliy huquqi” sifatida e’tirof etilishini anglatadi. Shu bilan birga, bu yondashuv xalqaro shartnomalarning Konstitutsiyadan yuqori turishini emas, balki federal qonunlar bilan bir darajada milliy huquq tizimiga kiritilishini bildiradi.

Albaniya Konstitutsiyasining 122-moddasida esa xalqaro shartnomalarning milliy huquqdagi ustuvorligi aniq belgilangan. Unda: “Qonun bilan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma, unga zid bo’lgan mamlakat qonunlaridan ustun turadi”, degan norma mustahkamlangan [8]. Ushbu qoida Albaniyada ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar oddiy qonunlardan yuqori yuridik kuchga ega ekanligini ko’rsatadi.

Xorvatiya Konstitutsiyasining 141-moddasida: “Konstitutsiyaga muvofiq tuzilgan, ratifikatsiya qilingan, e’lon qilingan va kuchga kirgan xalqaro shartnomalar Xorvatiya Respublikasining ichki huquqiy tartibining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda yuridik kuchi jihatidan qonunlardan yuqori turadi”, degan norma belgilangan [9]. Mazkur

yondashuv xalqaro shartnomalarning ichki huquq tizimiga bevosita integratsiya qilinishini va qonunlardan ustuvorligini ifodalaydi.

Chexiya Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida quyidagi qoida mustahkamlangan: “Parlament roziligi bilan ratifikatsiya qilingan, e’lon qilingan va Chexiya Respublikasi uchun majburiy bo’lgan xalqaro shartnomalar huquqiy tartibning tarkibiy qismi hisoblanadi; agar xalqaro shartnomada qonundan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo’lsa, xalqaro shartnoma qo’llaniladi [10].” Ushbu norma xalqaro shartnoma va milliy qonun o’rtasida kolliziya yuzaga kelganda xalqaro shartnoma qoidalariga ustuvorlik berilishini anglatadi.

Fransiya Konstitutsiyasining 54-moddasida xalqaro shartnomalar ustidan konstitutsiyaviy nazorat mexanizmi nazarda tutilgan. Unga ko’ra: “Agar Konstitutsiyaviy kengash xalqaro majburiyat Konstitutsiyaga zid qoidani o’z ichiga oladi, deb topsa, ushbu xalqaro majburiyatni ratifikatsiya qilish yoki tasdiqlashga ruxsat faqat Konstitutsiyaga o’zgartirish kiritilgandan keyingina berilishi mumkin [11].” Bu yondashuv Fransiyada xalqaro shartnomalar milliy qonunlardan ustun bo’lishi mumkinligini, biroq ular Konstitutsiyaga zid bo’lishi mumkin emasligini ko’rsatadi.

Ruminiya Konstitutsiyasining 20-moddasi 2-qismida: “Agar Ruminiya ishtirokchisi bo’lgan inson huquqlariga oid paktlar va shartnomalar bilan ichki qonunlar o’rtasida nomuvofiqlik mavjud bo’lsa, xalqaro normalar ustuvor qo’llaniladi”, degan norma belgilangan [12]. Mazkur qoida xalqaro



shartnomalarning ustuvorligini umumiy emas, aynan inson huquqlari sohasida tan oladi.

Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasida: “Tegishli tartibda kuchga kiritilgan xalqaro shartnomalar qonun kuchiga ega. Insonning asosiy huquq va erkinliklariga oid xalqaro shartnomalar bilan qonunlar o’rtasida bir masala yuzasidan turlicha qoidalar mavjud bo’lsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor qo’llaniladi”, degan norma mustahkamlangan [13]. Ushbu yondashuv Turkiyada xalqaro shartnomalarga qonun kuchini berish bilan birga, inson huquqlari sohasidagi shartnomalarga qonunlardan ustun maqom berilganini ko’rsatadi.

Bosniya va Gersegovina Konstitutsiyasining II-moddasi 2-qismida: “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to’g’risidagi Yevropa konvensiyasi hamda uning protokollarida belgilangan huquq va erkinliklar Bosniya va Gersegovinada bevosita qo’llaniladi. Ular boshqa barcha qonunlardan ustun turadi”, degan norma belgilangan [14]. Mazkur qoida xalqaro inson huquqlari standartlariga konstitutsiyaviy darajada alohida ustuvorlik berilganini ko’rsatadi.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 79-moddasida avval: “Rossiya Federatsiyasi xalqaro shartnomalarga muvofiq davlatlararo birlashmalarda ishtirok etishi va o’z vakolatlarining bir qismini ularga berishi mumkin, agar bu inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini cheklamas va Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslariga zid bo’lmasa”, degan norma mavjud edi. 2020-yilgi

konstitutsiyaviy o’zgartirishlardan so’ng ushbu modda xalqaro organlar qarorlarini ijro etish masalasida cheklov yanada kuchaytirildi: xalqaro shartnomalar qoidalarini Rossiya Konstitutsiyasiga zid talqin qilish asosida qabul qilingan xalqaro organlar qarorlari Rossiya Federatsiyasida ijro etilmaydi. Bu esa xalqaro huquq va milliy konstitutsiya o’rtasidagi nisbatda Konstitutsiya ustuvorligini kuchaytiruvchi yondashuv sifatida baholanadi [15].

Xorijiy davlatlar Konstitutsiyalaridan ko’rishimiz mumkinki, kamdan kam davlatlar Konstitutsiyalarida xalqaro shartnomalarning Konstitutsiyadan ustunligini e’tirof etgan. Aksariyat davlatlar esa bunga boshqacha yondashib, inson huquqlari masalasidagina ustunligini e’tirof etgan.

III. Milliy huquq tizimidagi mavjud normalarning huquqiy tahlili jihatidan. Endi aynan O’zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida bu masalada mavjud normalar tahlilini amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq. Birinchidan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasida “Biz, O’zbekiston xalqi, ... xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, ... ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” deb yozilgan. Bu borada shuni ham aytib o’tishimiz lozimki, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to’g’risida” gi qonunning 19-moddasida huquqiy normalar muqaddimaga kiritilmasligi belgilab qo’yilgan [16]. Ammo shunday bo’lsa-da, huquqiy



tahlilda preambuladagi ushbu norma tahlili juda muhim ahamiyatga ega, chunki preambula faqat ramziy yoki siyosiy bayonot emas, balki konstitutsiyaning umumiy maqsadi va yoʻlanilishi belgilovchi huquqiy-falsafiy mezon sifatida eʼtirof etilishi oʻrinlidir [17]. Shunday ekan muqadimmadagi ushbu normani tahlil qilishimiz oʻrinlidir. Ushbu norma mazmunida xalqaro huquqning umumietirof etilgan prinsip va normalariga Konstitutsiya asoslanishi aytilgan. Bunda “asoslanish” soʻzi konstitutsiyadan xalqaro shartnomalarning ustunligini emas, shunchaki Konstitutsiya ularga asoslanishi mazmunini beradi. Ushbu fikrimizni yanada huquqiy jihatdan aniqlashtirishimiz uchun tarixiy-qiyosiy sharhlashdan foydalanamiz. Buning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eski tahrirdagi variantiga murojaat qilishimiz lozim. Muqaddimada ushbu norma eski tahrirda bu norma quyidagicha jumla bilan ifodalangan edi: “xalqaro huquqning umum eʼtirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda”. Biroq oʻzgartirishlardan soʻng amaldagi Konstitutsiyamida xalqaro shartnomalarning qoidalari ustunligini tan oladi emas, balki ularga faqat asoslanadi mazmuniga keltirildi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaning 15-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda Oʻzbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir” deb mustahkamlangan. Shuningdek, ayni moddada Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun

hududida oliy yuridik kuchga ega, toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi degan norma mustahkamlangan. Ushbu ikki normani sharhlaydigan boʻlsak, birinchi norma xalqaro shartnomalar ham Oʻzbekiston huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligiga toʻxtalamiz. Huquqshunos olim Odilqoriyev huquqiy tizim tushunchasi boʻyicha quyidagicha fikrni aytgan: “huquqiy tizim huquq normalaridan iborat boʻlgan obyektiv huquqdan farq qilib, nafaqat bir turdagi elementlarni, balki turli yoʻnalish va harakatda boʻlgan huquqiy tuzilmalarni, gʻoyalarni, prinsiplarni, jarayonlarni oʻzida mujassamlashtiradi [18]”. Ikkinchi normaga eʼtibor beradigan boʻlsak, Konstitutsiya “mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega”. Bu boʻyicha huquqshunos olim Rainer Vahl quyidagicha taʼkidlagan: “Konstitutsiya ustuvorligi konsepsiyasi Konstitutsiyaga huquqiy tizimdagi eng yuqori yuridik kuchni beradi. Ushbu prinsipni eʼtirof etish faqatgina huquqiy normalarning iyerarxik tartibini belgilashni anglatmaydi. Gap turli yuridik kuchga ega normalar oʻrtasidagi oddiy kolliziya haqida emas. Konstitutsiya ustuvorligi prinsipi davlat organlarining institutsional tuzilishiga ham taalluqlidir. Mazkur prinsipning mohiyati quyidagicha ifodalanadi: Konstitutsiyaning ustuvorligi qonunning undan quyi turishini anglatadi, bu esa oʻz navbatida qonun chiqaruvchi organning ham Konstitutsiyaga nisbatan quyi maqomda ekanligini bildiradi [19].” Yaʼni bizningcha ushbu ikki normani mantiqan sharhlasak, quyidagicha mazmun kelib chiqadi: Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi Oʻzbekiston



huquqiy tizimi tarkibiga kiradi, O'zbekiston huquqiy tizimida esa Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega.

Uchinchidan, "Xalqaro shartnomalar to'g'risida" gi qonuning 2-modda 3-qismida "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi" degan norma belgilangan [20]. Ushbu normani sharhlaydigan bo'lsak, qonunchilik – bu mamlakatda amal qiluvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisidir [21]. Ya'ni bunda "O'zbekiston qonunchiligi" degan tushuncha bilan butun bir O'zbekistondagi normativ-huquqiy hujjatlar nazarda tutilgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham. Bizningcha bu norma amaldagi Konstitutsiyamizning 15-moddasidagi ushbu normaga zid: "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi". Chunki bu normada "qonunchilik" so'zi emas, "qonun" so'zi ishlatilgan. Bu esa Konstitutsiyaga ko'ra xalqaro shartnoma Konstitutsiyadan emas, qonunlardan ustunroqligini anglatadi.

To'rtinchidan, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida" gi konstitutsiyaviy qonunning 4-moddasi 1-qismi 2-bandida Konstitutsiyaviy sudning bir vakolati keltirilgan: "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan

imzolanganiga qadar — O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi [22]." Bu normaga ko'ra har O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari qabul qilinishidan oldin Konstitutsiyaviy sud ularning konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlanadi. Bu norma mazmunidan kelib chiqsak ham Konstitutsiya xalqaro shartnomadan ustun kuchga ega. Chunki qabul qilinayotganda hatto xalqaro shartnoma ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi ko'rib chiqilyapti.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy-huquqiy tahlillarimiz natijasi ko'pchilik davlatlarda xalqaro shartnomalar oddiy qonunlardan ustun qo'llanilishi mumkin bo'lsa-da, ular Konstitutsiyadan yuqori turmasligini ko'rsatdi. Ayrim davlatlarda esa xalqaro shartnomalarga ustuvorlik faqat inson huquqlari sohasida berilgan.

Asosiy masala yuzasidan muallif tomonidan quyidagi xulosaga kelindi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi o'rtasida ziddiyat vujudga kelganda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari qo'llaniladi. Yuqorida ushbu vajni nafaqat milliy qonunchilik hujjatlari bilan tahlil qilib berdik, balki bunday bo'lishining tub nazariy asoslarini keltirib, masalaga nazariy-huquqiy jihatdan yondashuvni bayon etdik.



Shuningdek, tahlilimiz natijasida “Xalqaro shartnomalar to`g`risida” gi qonunda “xalqaro shartnoma qonunchilikdan ustun” ekanligini nazarda tutuvchi norma mavjudligi

ushbu normaning Konstitutsiyaga zidlik ma`nosini berib qoladi degan xulosaga keldik. Shuning uchun ham bizningcha ushbu normaga o`zgartirish kiritish zarur deb o`ylaymiz.

Используемая литература:

1. Dubay, C.A. General Principles of International Law: Monism and Dualism // International Judicial Monitor, 2014. (Dubay, C.A. Xalqaro huquqning umumiy prinsiplari: monizm va dualizm // International Judicial Monitor, 2014).
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. (Constitution of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 01.05.2023, No. 03/23/837/0241).
3. Kelsen, H. Pure Theory of Law. 1967. (Kelsen, H. Sof huquq nazariyasi. 1967).
4. Gözler, K. The Question of the Rank of International Treaties in National Hierarchy of Norms: A Theoretical and Comparative Study // Prof. Dr. Mehmet Genç'e Armağan. Bursa: Dora, 2016. – P. 21–46. (Gözler, K. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida xalqaro shartnomalarning o`rni masalasi: nazariy va qiyosiy tadqiqot // Prof. Dr. Mehmet Genç'e Armağan. Bursa: Dora, 2016. – B. 21–46).
5. Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son. (National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 20.04.2021, No. 03/21/682/0354).
6. Constitution of the United States of America // Constitution Annotated. (Amerika Qo`shma Shtatlari Konstitutsiyasi // Constitution Annotated).
7. Constitution of the Republic of Albania. 1998. (Albaniya Respublikasi Konstitutsiyasi. 1998).
8. Constitution of the Republic of Croatia. Consolidated text, 2010. (Xorvatiya Respublikasi Konstitutsiyasi. Yig`ma matn, 2010).
9. Constitution of the Czech Republic. 1992. (Chexiya Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992).
10. Constitution of the French Republic. 1958. (Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasi. 1958).
11. Constitution of Romania. 1991. (Ruminiya Konstitutsiyasi. 1991).
12. Constitution of the Republic of Türkiye. 1982. (Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi. 1982).
13. Constitution of Bosnia and Herzegovina. 1995. (Bosniya va Gersegovina Konstitutsiyasi. 1995).
14. Constitution of the Russian Federation. 2020 edition. (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi. 2020-yilgi nashr).
15. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2006-y., 41-son, 406-modda. (Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2006, No. 41, Article 406).



16. Choriyev, U. Konstitutsiya preambulasining huquqiy tabiati // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. Vol. 5, No. 12, 2025. – P. 51–61. (Choriyev, U. The Legal Nature of the Constitutional Preamble // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. Vol. 5, No. 12, 2025. – P. 51–61).
17. Odilqoriyev, X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: Adolat, 2018. – 528 b. (Odilqoriyev, X.T. Theory of State and Law. Tashkent: Adolat, 2018. – 528 p.).
18. Wahl, R. Der Vorrang der Verfassung // Der Staat. No. 4, 1981. – P. 485. (Wahl, R. Konstitutsiyaning ustunligi // Der Staat. No. 4, 1981. – P. 485).
19. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2019-y., 03/19/518/2589-son. (National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 07.02.2019, No. 03/19/518/2589).
20. Odilqoriyev, X.T. O'zbekistonda qonun chiqarish jarayoni. Toshkent: O'zbekiston, 1995. (Odilqoriyev, X.T. Legislative Process in Uzbekistan. Tashkent: O'zbekiston, 1995).
21. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. (National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 28.04.2021, No. 03/21/687/0380).
22. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son. (National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 28.04.2021, No. 03/21/687/0380).